



## ANTIOKSIDANT VA MEMBRANOSTABILIZATSIYALOVCHI TERAPIYANING SURUNKALI GEPATITDA SAMARASI

**Yakubova Azada Batirovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urgench filiali

Urgench, O'zbekistan

**Tadqiqot maqsadi.** Surunkali gepatitda ishemiyaga qarshi, antioksidant, membranostabilizatsiyalovchi hamda immunomodullirlovchi xususiyatga ega bo'lgan tiotriazolin (morfoliniy-metil-triazolil-tiotsetat) 25 mg. Preparatining effektivligini o'rganish.

**Tadqiqot materiali va usullari.** Tekshiruvga Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi gastroenterologiya bo'limida 2021 yil dekabr oyidan 2022 dekabr oylari mobaynida "Surunkali gepatit qo'zish davrida" tashxisi bilan statsionar davolanagan 44 yoshdan 65 yoshgacha (o'rtacha yoshi  $53,6 \pm 5,7$  yosh) bo'lgan 30 nafar bemor kiritildi. Bemorlar 2 gurupga ajratildi. Birinchi gurup 15 ta bemordan iborat bo'lib, ularga umumqabul qilingan standart terapiya fonida 4 ml. tiotriazolin preparati 0,9%-250,0 natriy xlorid eritmasiga qo'shib 10 kun davomida vena ichiga tomchilab yuborish yo'li orqali davolandilar. Ikkinchi gurup bemorlar taqqoslash guruhi bo'lib, 15 ta bemordan iborat, ularga faqat umumqabul qilingan standart davolash o'tkazildi.

Bemorlarda asosiy sub'ektiv belgilarning namoyon bo'lish darajasi, ob'ektiv belgilari, standartlashtirilgan 5 ballik shkala. Davoning umumiy effektivligini baholash uchun 5 pog'onali shkaladan foydalanildi:

- yomonlashish,
- o'zgarishsiz,
- qoniqarli (ozroq yaxshilanish),
- yaxshi (ancha yaxshilashish),
- a'lo darajada (kasalliklar simptomlari yo'qolishi).

Bundan tashqari bemor holatini aniqlash uchun qon analizlari muntazam tekshirilib borildi.

**Tadqiqot natijalari.** Tiotriazolin preparatining u yoki bu darajada ijobiy ta'siri 14 (93,3%) ta bemorda kuzatildi. Effekt yo'qligi faqat 1 ta bemorda (6,7%) kuzatildi. Tiotriazolin preparati fonida davolanishdan so'ng bemorlarning analiz ko'rsatkichlarida ishonarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. MMSE shkalasi bo'yicha asosiy guruhdagi bemorlar davolanishgacha  $24,1 \pm 0,5$  ball, davodan so'ng esa  $27,9 \pm 1,7$  ball, taqqoslash guruhidagi bemorlar davolanishgacha  $24,2 \pm 0,5$  ball, davodan so'ng esa  $25,3 \pm 1,7$  ball to'plashdi.

**Xulosa.** Shunday qilib 10 kun davomida umumqabul qilingan davolash va kuniga 4 ml. tiotriazolinni 0,9% natriy xloridning 250 ml.lik eritmasiga qo'shib vena ichiga in'eksiya qilinishi quyidagi natijalarni berdi:

1. Antioksidant va membranostabilizatsiyalovchi ta'sirga ega tiotriazolin preparatini surunkali gepatitning qo'zish davrida qo'llash bemorlar klinik holatining yaxshilanishiga olib keladi va ushbu patologiyada uchraydigan klinik simptomlar – gepatotsitlar regeneratsiyasini kuchaytirdi, oqsil, uglevod, lipid va pigmentlar almashinivuni kuchaytirdi, o'tning sintezi va ajralish miqdorini oshirdi. Jigar sohasidagi og'riq, ALT ning pasayishi, timol hamda oqsil miqdorlarining normaga tushishi, darajasini ishonarli darajada kamaytirdi.

2. Surunkali gepatitning qo'zish davrida tiotriazolin preparatini qo'llash ushbu patologiyada ko'p uchraydigan ensefalopatik buzilishlarni sezilarli darajada kamayishiga olib keldi.